

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11501095>

PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRISH

Jurayev O'tkirbek Murodillo o'g'li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistent o'qituvchisi

Suvonov Behruz Iskandar o'g'li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistent o'qituvchisi

Xayriddinov Shavkat Batirovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistent o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada pedagog o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish, kasbiy rivojlantirish borasida amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot keltirilgan. Bundan tashqari pedagogik tajribani oshirish to'g'risida bir qancha taklif va fikrlar ham bayon etilgan.

***Kalit so'zlar:** pedagogik mahorat, ta'lim va tarbiya, oliy ta'lim muassasasi, bog'cha, maktab, litsey, kollej, texnikum, muloqot, malaka, bilim, tajriba.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о проделанной и проводимой работе по повышению педагогического мастерства и профессионального развития педагогов. Кроме того, был представлен ряд предложений и мнений по совершенствованию педагогического опыта.

***Ключевые слова:** педагогическое мастерство, образование и воспитание, высшее учебное заведение, детский сад, школа, лицей, техникум, техникум, общение, умения, знания, опыт.*

ANNOTATION

This article provides information about the work done and being done to improve the pedagogical skills and professional development of pedagogues. In addition, a number of proposals and opinions on improving pedagogical experience were also presented.

***Keywords:** pedagogical skill, education and upbringing, higher education institution, kindergarten, school, lyceum, college, technical school, communication, skills, knowledge, experience.*

O'zbekistonda ta'lim va tarbiya sohasiga juda katta e'tibor qaratilmoqda, ayniqsa, ta'limga. Yurtimizda ta'lim sohasi ketma-ketligi yaxshi yo'lga qo'yilgandir. Ya'ni bola tug'ilgach eng birinchi ta'lim va tarbiyani uyida ota-onasidan, bobo va buvisidan, aka va opalaridan olib, o'rganib ulg'ayishni boshlaydi. Keyinchalik 2-3 yoshga to'lgach maktabgacha ta'lim tashkiloti, ya'ni bog'chaga chiqadi. 6-7 yoshlarda esa ta'lim beruvchi maskan — maktablarga boradi. Maktablarni bitirgach o'rta-maxsus bilim beruvchi turli oq'uv muassasalariga (litsey, kollej, texnikum) o'qishga kirishadi yoki maktabda 11yil o'qib OTMLarga o'zlariga istagan yo'nalish bo'yicha hujjat topshirishadi.



1-rasm. O'qituvchining pedagogik jarayonidan lavha.

Ushbu o'quvchilarni o'qitish uchun barcha ta'lim muassasalarida pedagog o'qituvchilar yetarli hisoblanadi. Pedagoglar o'quvchilarga o'z mutaxassisliklari bo'yicha bilim berishadi. O'quvchilarga fan doirasidagi mavzularni o'qitishadi, tushuntirishadi, ularning bilimni tekshirishadi. Bu esa yetishib kelayotgan yosh avlodning bilimli, ma'nan yetuk bo'lishiga sezilarli darajada o'z hissasini qo'shadi.

O'qituvchilar o'quvchilarga dars berish davomida mavzuni aytib, kerakli ma'lumotlarni yozdirib tushuntirishadi. Ularga savol berib, ular bilan muloqot qilib o'quvchilarning bilimni oshirishga harakat qiladilar.

O'quvchilarning bilimni oshirish uchun o'qituvchi-pedagoglar barcha usul va metodlarni qo'llab ko'rishi maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga o'qituvchilar o'zlarining kasbiy tajribasini oshirishi ham kerakdir. Chunki pedagog bilimli bo'lishi bilan birga o'zidagi bilimni o'quvchilarga yetkaza olishi ham zarurdir.

O'zbekistonda pedagoglarni qayta tayyorlash, ularning malaka va bilimni oshirish maqsadida ko'plab qayta tayyorlov va malaka oshirish markazlari va institutlari tashkil etilgan. Shunday institutlardan biri A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti hisoblanib, O'zbekistondagi eng yirik o'qituvchilar malakasini oshirish institutidir. Bu institut 1934-yilda Xalq ta'limi kadrlar malakasini oshirish instituti nomi bilan tashkil topgan [5].

Ta'lim oluvchining kreativlikni rivojlantirishda - ta'lim jarayonlariga, berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirishga va o'zlashtirish darajasiga, ta'lim manbalari va vositalariga, topshiriqlar va ularning ijrosiga e'tibor qaratish, ta'lim jarayonlarining munosib tashkil etishga diqqat qaratilishi lozim.

Talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bir qator omillar mavjud:

- kreativ fikrlash va faollikni shakllantirish;
- yaratuvchilik, muammolarga ijodiy yondashishni rivojlantirish;
- talabalarning kreativ faoliyatini yanada kuchaytirishga erishish;
- talabalarning kasbiy ko'nikma va layoqatlarini rivojlantirish, mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsatish, mustaqil bilim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini bilish, o'z mavqeyiga ega bo'lish ko'nikmasini shakllantirish;
- qulay ijodiy hamkorlik muhitini vujudga keltirish kabilar.

Bo'lajak pedagoglarni har tomonlama salohiyatli, raqobatbardosh, intellektli etib tayyorlashda yuqoridagi barcha sifatlarga amal qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Shu bilab birga bo'lajak pedagog o'z kasbi uchun mumkin bo'lmagan quyidagi shaxsiy sifatlarni yenga bilishi shart:

- rasmiyatchilik;
- befarqlik, loqaytlik;
- jizzakilik;
- qarorlarni qabul qilishda bir tomonlamalilik [1].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda o'qituvchi pedagoglarning kasbiy tajribasini oshirish muhim hisoblanadi. Bu jarayonga katta e'tibor qaratilyotganligi esa juda quvonarlidir. Chunki hozirgi XXI asrda yosh avlodni fanga qiziqtirish, ularga sifatli bilim berish, bilimni yetkaza olish, ularga shu fanga nisbatan ko'nikma uyg'otish oson ish emas. Bilim berishda o'qituvchi qo'shimcha usul va metodlardan foydalanmog'i, har xil o'yinlardan, rasmlardan va krosvordlardan foydalanmog'i kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mahliyo Faxriddinova Esanova, Kamola Xasan qizi Muxiddinova. Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatiga oid kompetentligini rivojlantirish. "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz July 2023 / Volume 4 Issue 7.

2. Murodullo o'g'li, J. U. APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN TECHNICAL SYSTEMS IN ENGINEERING FIELDS.

3.. Suvonov, B., & Islomov, A. (2024, May). VIRTUAL REALITY AND THE PRINCIPLES OF USING VIRTUAL REALITY IN THE EDUCATIONAL PROCESS. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 57-59).

4. Raxmonov, X., & Sunatov, J. R. (2022). O 'ZBEK TILI KOMPYUTER LINGVISTIKASI YO 'NALISHIDA OLIB BORILGAN ILMIY TADQIQOTLAR. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).

5. Sunatov, J. R. (2023, December). TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O 'RNI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions"* (Vol. 1, No. 01).

6. угли Сунатов, Ж. Т., & Юсупов, Ш. (2024). АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ЯЗЫКОВ ПРОГРАММИРОВАНИЯ И ИХ ВОЗМОЖНОСТИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ. *Innovative Development in Educational Activities*, 3(3), 73-79.

7. Sunatov, J. R., Shamatova, G., & Maxmanazarov, O. (2024). TA'LIMDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH (MS POWERPOINT AMALIY DASTURIY TA'MINOT MISOLIDA). *Talqin va tadqiqotlar*, (28).

8. Abduvaliyev, A. A., & Sunatov, J. T. (2024). IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA TREND MEZONIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Экономика и социум*, (2 (117)-1), 69-73.

9. Sunatov, J. R., Rustamov, R., & Dustmurodova, M. (2024). KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA FONETIK TAHLIL JARAYONI. *Modern Science and Research*, 3(5), 191-195.

10. Qodirov, F., & Suvonov, B. (2023). Development Of An Automatic Ventilation System For Smart Greenhouses. *Solution of social problems in management and economy*, 2(13), 168-172.

11. Iskandar o'g'li, S. B. (2023). TABIIY GAZNI QAYTA ISHLASH JARAYONINING INTELLEKTUALLASHTIRILGAN BOSHQARUVIDA

NOANIQ MANTIQ ASOSIDAGI MODEL DAN FOYDALANGAN HOLDA NAZORAT QILISH.

12. Khayriddinov, S., & Nodirova, F. (2024). ADVANCED PEDAGOGICAL IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION THE SIGNIFICANCE OF EXPERIENCES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (28).

13. Asror o'g'li, A. O., & Rahmon o'g'li, S. E. (2024). TA'LIMGA VEB PLATFORMALARNI JORIY ETISHNI TAHLIL QILISH. *GOLDEN BRAIN*, 2(8), 92-97.

14. Khayriddinov, S. (2023). CLOUD TECHNOLOGIES AS A TOOL FOR FORMING PERSONAL INFORMATION EDUCATIONAL ENVIRONMENT. *International Bulletin of Engineering and Technology*, 3(4), 72-76.

15. Suvonov, B., & Jamilova, S. (2024). SUN'IY INTELLEKTUAL TIZIMLARDA NOANIQ MANTIQNING AHAMIYATLILIGI VA UNING ANIQ MANTIQDAN FARQI. *Interpretation and researches*, (4 (26)).